

«Tasdiqlayman»

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘quv ishlari prorektori

_____ B.To‘xtamishev

“ _____ ” _____ 2023 yil

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Axborot-resurs markazi
2023 yil mobaynida amalga
oshirilgan ishlar yuzasidan

H I S O B O T



Жиззах-2023

*JDFU axborot-resurs markazining
2023 yil yakuni bo'yicha hisoboti*

Taraqqiyot sari odimlayotgan Yangi Ozbekistonda barcha ijtimoiy sohalarda bo'lgani kabi axborot-kutubxona sohasida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid qabul qilingan qonun, qaror va me'yoriy hujjatlarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslarini shakllantirish va aholiga sifatli axborot- kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois, universitet axborot-resurs markazi sohaga doir qonun, qaror va me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat olib borib, yil davomida ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash yuzasidan o'z oldiga qator vazifalarni belgilab oldi. Jumladan, universitet axborot-resurs markazida Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilgan **5 ta muhim tashabbus** ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasi shuningdek, **“2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab- quvvatlash milliy dasturi”** da belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi, ARMning **yillik faoliyat rejas** ishlab chiqildi. Shuningdek, talabalar bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi, 1-kurs maktabi doirasida “Suhbat-sayohat” tadbirlari rejasi, yangi adabiyotlarni xarid qilish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi, fanlardan yetishmaydigan o'quv adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil etish rejasi belgilab olindi. Faoliyatga doir belgilangan ushbu rejalarni amalga oshirishdan maqsad talaba-yoshlarga shuningdek, aholining barcha qatlamlariga axborot kutubxona xizmatlari ko'rsatish, kitobxonlarga tez va sifatli axborotlarni yetkazish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirishdan iborat bo'ldi.

Axborot-resurs markazining umumiy maydoni **2960 kv.mni**, jami o'rindiqlar **soni 405 tani** tashkil etadi. Yil davomida 6ta o'quv zali va Xizmat ko'rsatish bo'limlari kitobxonlarga axborot xizmatlari ko'rsatdi. Shuningdek, foydalanuvchilarning o'quv-ta'limiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida axborot-resurs markazining Talabalar turar joyida tashkil etilgan tarmoq ham zarur

adabiyotlar fondiga ega boʻlib, TTJ da yashovchi talabalar uchun axborot xizmatlari koʻrsatildi. Shu bilan birga, asosiy oʻquv binosidan uzoqda joylashgan fakultetlar - Tarix, Matematika-informatika, Sirtqi boʻlim hamda Fizika va texnologik taʼlim fakultetlari qoshida ham ARM tarmoqlari tashkil etilgan boʻlib, mazkur tarmoqlarda talaba-yoshlarning kerakli vaqtda zarur axborotlarni olishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Jumladan,

-Tarix fakulteti qoshida tashkil etilgan tarmoq **4779 ta kitob fondiga** ega boʻlib, 2 nafar xodim faoliyat olib boradi. Tarmoq zarur inventar jihozlar hamda **8 ta kompyuter jamlamasi** bilan taʼminlangan. Tarmoq oʻquv **zali 20 oʻringa** moʻljallangan.

-Matematika-informatika fakulteti qoshida tashkil etilgan tarmoq 23 oʻrinli boʻlib, **2139 ta** kitob fondiga ega. Tarmoq oʻquv zali **6 ta kompyuter jamlamasi** hamda zarur oʻquv va inventar jihozlar bilan taʼminlangan.

- Fizika va texnologik taʼlim fakulteti qoshida tashkil etilgan **tarmoq 15 oʻrinli** boʻlib, **4155 ta kitob fondiga ega**. Tarmoqda 5 ta kompyuter jamlamasi mavjud boʻlib, 2 nafar xodim faoliyat olib boradi.

-Axborot-resurs markazining **Sirtqi boʻlim qoshidagi tarmogʻi 28 oʻrinli** boʻlib, **1500 ta kitob fondiga** ega. Tarmoq 1 dona kompyuter jamlamasi bilan taʼminlangan.

-Talabalar turar joyida faoliyat olib borayotgan axborot-resurs markazi tarmogʻi **20 oʻrinli** boʻlib, 5 dona kompyuter jamlamasi mavjud. **Tarmoq 3161 ta kitob fondiga** ega.

Mazkur tarmoqlar talaba-yoshlarni kutubxonaga koʻproq jalb qilish va kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida fakultetning barcha professor-oʻqituvchilari hamda talabalarini axborot-resurs markaziga toʻliq aʼzo qilish hamda kitob fondidagi kam nusxali oʻquv adabiyotlarning elektron nusxalarini koʻpaytirib, talabalar ehtiyojini qondirish borasida faoliyat olib bordilar.

Axborot-resurs markazida yil davomida o'quv ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'limning uzviyligini ta'minlash va xodimlar kasb malakasini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

1. Axborot-resurs markazi joriy yilda o'quv jarayonini samarali tashkil etish borasida universitet registrator ofisi (o'quv uslubiy boshqarmasi) bilan birgalikda ish olib bordi. Jumladan, talabalarning o'quv darsliklar bilan ta'minlanish holatini o'rganish maqsadida ARMning "Axborot guruhi" barcha kafedralar bilan hamkorlikda ish olib borib, talabalarning o'quv adabiyotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rgandi. Ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha yangi ochilgan yo'nalishlarda o'qitiladigan fanlardan o'quv adabiyotlari yetishmasligi sababli mazkur adabiyotlarning elektron versiyalari INTERNET tarmog'idagi ta'lim saytlaridan yuklab olinib, foydalanuvchilarga yetkazib berildi.

Shuningdek, axborot-resurs markazi kitob fondini zarur o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash borasida universitetda tashkil etilgan Muvofiqlashtiruvchi Kengash bilan hamkorlikda ish olib borib, **2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan nashr etish** rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar universitet professor-o'qituvchilari **tomonidan 18 ta o'quv adabiyotlar nashrdan chiqarildi, 75 ta o'quv adabiyotlar ijobiy xulosa olib, nashrga tavsiya etildi.**

Universitetda o'quv-ta'lim jarayonini samarali olib borilishida axborot-resurs markazining o'ziga xos o'рни bo'lib, 2023-2024 o'quv yilida foydalanuvchilarga masofadan turib zamonaviy axborot xizmatlari ko'rsatish darajasi birmuncha oshirildi. ARMda **www.lib.jdpu.uz sayti, JDPU Elektron kutubxona** telegramm kanali faoliyatini birmuncha takomillashtirishga erishildi. ARMning Elektron resurslar bilan xizmat ko'rsatish bo'limida foydalanuvchilarning elektron axborot-resurslaridan erkin foydalanishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari **JDPU o'qituvchilari-ARM, JDPU Sirtqi**



o`qituvchilar-ARM telegramm kanallari mavjud bo`lib, professor-o`qituvchilar uchun masofaviy axborot xizmatlari yo`lga qo`yilgan. Kompyuterlar **INTERNET** tarmog`iga ulangan. Shu bilan birga ARMda **Wi-Fi** zonalar mavjud.

Axborot-resurs markazining Elektron darsliklar bo`limida ko`zi ojiz talabalar uchun **NVDA** dasturi orqali xizmat ko`rsatish ishlari olib borildi. Shu bilan bir vaqtda, imkoniyati cheklangan talabalar uchun viloyat ko`zi ojizlar kutubxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan Brayl alifbosida chop etilgan adabiyotlarni olib kelish ishlari yo`lga qo`yilgan. Mustaqil dars tayyorlashga mo`ljallangan (musiqiy ta`lim yo`nalishi talabalar uchun) Sibilius-7 dasturi ham ishlab turibdi. Shuningdek, foydalanuvchilarning xorijiy adabiyotlarga bo`lgan ehtiyojlarini to`laroq qondirish maqsadida O`zbekiston Milliy kutubxonasining **EBSCOHost bazasidan** onlayn foydalanish imkoniyati yo`lga qo`yildi.

Axborot-resurs markazining Ilmiy-uslubiy bo`limida foydalanuvchilar uchun universitet bitiruvchilarining Malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, ta`lim sohalari bo`yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlari, o`quv adabiyotlar, ma`ruza matnlari, konferensiya materiallari jamlamasi tashkil etilgan. Mazkur ilmiy ishlar - avtoreferatlar hamda professor-o`qituvchilar tomonidan yaratilgan ishlarning umumiy ro`yxati va elektron versiyalari bo`limning ma`lumotlar bazasiga kiritilgan. Shuningdek, Respublikamizda nashr etiladigan gazeta (25 nomda, 89 nusxa) va jurnallarga (24 nomda 74 nusxa) yillik obuna tashkil etilgan bo`lib, davriy nashrlar jamlanmasi yil davomida to`ldirib borildi. O`quv zaliga murojaat etuvchilar kundalik yangiliklardan xabardor bo`lishlari uchun qulay sharoit mavjud.

Professor-o`qituvchilar va talabalarning ARMga a`zolicini tashkil etish hamda ularni kutubxonaga ko`proq jalb qilish borasida chora- tadbirlar belgilandi. Xususan, 1-kurs talabalarini ARM faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali ularni kutubxonaga jalb qilish borasida "Suhbat-sayohat" tadbirlari reja asosida o`tkazildi va a`zolik ishlari olib borildi. Shuningdek, professor-o`qituvchilar orasida ham targ`ibot ishlari yo`lga qo`yilib, ARMga a`zolik soni oshirildi. Hozirgi kunda

universitet professor –o‘qituvchilari soni 799 tani tashkil etib, ulardan 712 nafari axborot-resurs markazi a’zosi. Professor-o‘qituvchilarning axborot-resurs markazidan foydalanish holatini qayd qilish daftari yuritilgan bo‘lib, kunlik o‘rtacha qatnovlar 50-55 tani tashkil etadi.

Shuningdek, yil davomida axborot-bibliografik ma’lumotlar tizimi muntazam yuritilib, umumiy fond alfavit va sistemali kataloglar orqali yoritib borildi. Foydalanuvchilar mazkur ma’lumotlar tizimiga yil mobaynida 147 ta og‘zaki hamda 115 ta yozma so‘rovlar bilan murojaat qildi. Shu bilan birga “Talab va takliflar daftari” yuritilib, ta’lim yo‘nalishlaridan zarur adabiyotlarga buyurtmalar olindi.

2023 yil davomida axborot-resurs markazining umumiy **fondi 532 nomda 6636 dona 985.767.342.532 so‘mlik yangi** adabiyotlar bilan boyitildi. Ayni paytda axborot-resurs markazining umumiy fondi: **umumiy fondi-21250 nomda, 186551 nusxani** tashkil etadi. Shundan, kitob fondi (nashriy)- 21250 nomda, 151115 nusxa; elektron resurslar fondi- 35436 nusxa shuningdek, 546 nusxada turli fan sohalariga doir audio adabiyotlar mavjud.

Yil yakuniga kora, kitobxonlar soni 20195 nafarni tashkil etdi. Axborot-resurs markaziga yil davomidagi **qatnovlar soni 351418 ta, berilgan adabiyotlar 1080831 tani** shuningdek, kitobxonlarning ARMga **bir kunlik o‘rtacha qatnovlari 650-700 tani** tashkil etdi.

2. Universitet axborot-resurs markazida **ma’naviy-tarbiyaviy ishlar** ham reja asosida olib borildi. Shu bilan bir vaqtda o‘tkazilgan tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “ARM yangiliklari” rukni ostida universitet va ARM saytida joylashtirib borildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturiga muvofiq joriy yilning 18-19 yanvar kunlari universitet professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Yangi adabiyotlar sizlar uchun” nomli adabiyotlar targ‘iboti, 13 fevral kuni ”Musiqqa ta’limi” yo‘nalishi hamkorligida “Bobur-shoh va shoir” mavzusida adabiy-musiqiy kecha, 14 fevral kuni “Buyuklar nomi ila

yashaymiz mudom, Navoiy dahosiga so`nmas ehtirom” mavzusida she`riyat kechasi, 24 fevral kuni Jismoniy madaniyat fakulteti hamkorligida “O`tkir Hoshimov ijodiga bir nazar” mavzusida tadbirlar o`tkazildi.



Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo`llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to`g`risida”gi **781-sonli qaroriga** muvofiq

aprel oyining birinchi haftasi “**Kitobxonlik haftaligi**” etib belgilanganligi munosabati bilan joriy yilning 3-8 aprel kunlari universitet axborot-resurs markazida “Kitobxonlik haftaligi” tadbirlari bo`lib o`tdi. “Kitobxonlik haftaligi” doirasida 5 muhim tashabbus ijrosiga alohida e`tibor qaratildi. Jumladan, “Kitobxoncha QUIZ” nomli bellashuv, ”Kitob –tafakkur qanoti”, ”Men o`qigan asar” kabi mavzularda tadbir tashkil etildi.



Kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo`yicha erishilgan yutuqlar shundaki, o`tkazilgan kitobxonlik tadbirlariga keng kitobxonlar ommasi jalb etildi. Mazkur tadbirlarda jami 11247 nafar kitobxonlar ishtirok etib, adabiyotlar ko`rgazmasi namoyishi orqali yangi adabiyotlar targ`ibotlari o`tkazildi. Taniqli san`at va adabiyot vakillari taklif etilib, kitobxonlar bilan ijodiy uchrashuvlar o`tkazildi.

Kitobxonlik haftaligida faol ishtirok etgan kitobxonlar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan munosib taqdirlandi. Shu bilan bir vaqtda o'tkazilgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar viloyat OAVda hamda "ARM yangiliklari" rukni ostida universitetning veb sahifasida yoritib borildi. Shu bilan bir vaqtda axborot-resurs markazining 2023 yilga mo'ljallangan **Media rejasida** belgilangan vazifalar ijrosi ham ta'minlandi.

Shuningdek, axborot-resurs markazida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida **"Tafakkur" kitobxonlar klubi** hamda **"Qodiriy vorislari" nomli to'garak** muntazam ravishda fakultetlarning yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda faoliyat olib borib, kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazdilar.

3. ARM xodimlarining ilmiy salohiyatini oshirish borasida ularning kasb malakasini oshirish ishlari ham reja asosida olib borildi. Joriy yil mobaynida axborot-resurs markazi xodimlari kasb malakasi bo'yicha viloyatda o'tkazilgan o'quv-seminarlarda ishtirok etdilar. Jumladan, viloyat



AKMda Respublika yig'ma elektron katalogi-UNICAT bilan ishlash hamda EBSCOHost xorijiy ma'lumotlar bazasidan foydalanishga bag'ishlangan seminar-treninglarda qatnashib, malaka sertifikatlarini oldilar.

Joriy yilning sentyabr oyida universitet rahbariyati tomonidan tuzilgan ishchi guruhning "ARMda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalalari" bo'yicha o'tkazilgan o'rganish yakunlariga ko'ra, xodimlarning kasb malakasi, bilim saviyasi talab darajasida emasligi, lotin yozuvida savodxonlik darajasi past ekanligi ko'rsatib o'tilganligi bois, mazkur kamchiliklarni

bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda xodimlarning kasb malakasini oshirish yuzasidan bir haftalik o`quv mashg`ulotlari tashkil etildi, grafik asosida sohaga doir test savollari va lotin yozuvida savodxonlik mashg`ulotlari yo`lga qo`yildi. Shuningdek, har yili 5 nafar xodimni kasb malakasini oshirish kurslariga yuborish rejalashtirildi; 5 nafar xodim mutaxassislik yo`nalishi bo`yicha texnikumlarda o`qish uchun hujjat topshirdi. ARMning 2023-2025 yillarga mo`ljallangan strategik rejasiga muvofiq, har yili 1 nafar xodim xorijda malaka oshirishi rejalashtirildi.

Shu bilan birga, joriy yilning 26 sentyabr kuni axborot-resurs markazining bir guruh xodimlari “ARM faoliyatini takomillashtirish masalalari” bo`yicha Respublikamizning yetakchi axborot–kutubxona muassasalarida bo`lib, ilg`or tajribalar bilan tanishib qaytdi . Ayni paytda jami malaka oshirgan xodimlar soni 26 nafarga yetdi.

4. Universitet axborot-resurs markazi foydalanuvchilarga zamonaviy texnologiyalar asosida axborot xizmatlari ko`rsatishga qaratilgan 3 yillik strategik rejasini ishlab chiqdi. 2023-2025 yillarga mo`ljallangan mazkur strategik rejaga muvofiq, zamonaviy avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi bilan ta`minlash; 2024 yildan boshlab RFID texnologiyasini joriy etish; mavjud kitob fondini to`liq elektron shaklga o`tkazish va “Elektron kutubxona” platformasiga kiritish, ARMning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zarur jihozlar bilan ta'minlash, o`quv zallarining sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy ko`rinishga olib kelish choralari yuzasidan moliyaviy mablag`lar ajratildi.

Axborot-resurs markazi binosini rekonstruksiya qilish bo`yicha loyiha-smeta hujjatlari “GOLD PROJECT SERVICE” MCHJ tomonidan tayyorlangan. Loyihaning umumiy qiymati 3.2 mlrd so`mni tashkil qiladi. Shuningdek, universitet axborot-resurs markazini TOP-1000 talikka kirgan oliy ta`lim muassasalarining

axborot-resurs markazlariga integratsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Ayni paytda axborot -resurs markazida jami 51 ta kompyuter, 2 ta printer, 1 dona Canon MF 443dw rusumli skaner, 4 dona (3/1) skaner, 1 ta "Artel" rusumli televizor, 1 ta videoproektor kitobxonlarga axborot xizmatlari ko'rsatib kelmoqda. Shundan 21 tasi ishchi kompyuterlar bo'lib, qolganlari foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, axborot-resurs markazining Talabalar turar joyida hamda fakultetlar qoshida tashkil qilingan tarmoqlar ham yetarlicha kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlangan.

5. Axborot-resurs markazida ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida universitet tasarrufidagi G'allaorol va Mirzacho'l texnikumlari hamda Akademik litsey bilan ham hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Mazkur o'quv yurtlarining o'quvchilari universitet axborot-resurs markaziga to'liq a'zo qilingan. Bu ta'lim muassasalarining kitob fondini boyitish hamda o'quvchilarning o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish maqsadida zarur adabiyotlarning elektron versiyalari yetkazib berildi. Ularda tahsil oladigan o'quvchi-yoshlarning ARM xizmatlaridan erkin foydalanishlari hamda ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tashlari uchun yetarlicha sharoitlar mavjud. Shuningdek, mazkur ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar ham tashkil etib borildi. Jumladan, aprel oyining 1-haftasida o'tkazilgan "Kitobxonlik haftaligi"da universitet tasarrufidagi G'allaorol va Mirzacho'l agrosanoat texnikumi hamda Sayljoyi Akademik litseyining o'qituvchi va o'quvchilari shuningdek, viloyatdagi barcha ta'lim muassasalari ishtirok etdilar.

Bir so'z bilan aytganda, hududdagi namunali axborot-resurs markazi deb e'tirof etilgan JDPU axborot-resurs markazi joriy yilni birmuncha yuqori ko'rsatkichlar bilan yakunladi. Ya'ni, kitobxonlarni axborot-resurs markaziga ko'proq jalb qilish, qatnovlar sonini oshirish, kitob o'qilishi miqdorini yuqori darajaga ko'tarish borasida

qator ishlar amalga oshirildi. Foydalanuvchilarga tez va sifatli axborot xizmatlari ko'rsatish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida rejalashtirilgan barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'z vaqtida o'tkazildi.

ARMda yil davomida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar

| № | Tadbirlar nomi | O'tkazilgan vaqti | O'tkazilgan joyi |
|----|---|-------------------|---------------------------------------|
| 1 | Yangi adabiyotlar sizlar uchun | 18-19.01.2023 | Axbopot-resurs markazi |
| 2 | Bobur shoh va shoir | 13-14.02.2023 | ARM majlislar zalida |
| 3 | Buyuklar nomi ila yashaymiz mudom, Navoiy dahosiga so'nmas ehtirom" | 09.02.2023 | Madaniyat saroyi |
| 4 | Bori elga yaxshilig` qilg`il | 14.02.2023 | Madaniyat saroyi |
| 5 | O`tkir Hoshimov ijodiga bir nazar | 24.02.2023 | Badiiy adabiyotlar o`quv zali |
| 6 | Zulfiyaxonim she`rlari-ingliz tilida | 01.03.2023 | Badiiy adabiyotlar o`quv zali |
| 7 | Зулфияханум-великая узбекская поэтесса | 01.03.2023 | APM Мажлислар зали |
| 8 | "Bilimdon tilshunoslar" tanlovi doirasida Men sevgan kitob" mavzusida bahs-munozara | 03.03.2023 | APM Мажлислар зали |
| 9 | Bahor keldi seni so`roqlab | 28.02.2023 | Madaniyat saroyi |
| 10 | Sumalak-Navro`zning shoh taomi | 01.03.2023 | ARM TTJ -2 |
| 11 | Kutubxona va undan foydalanish qoidalari | 28.03.2023 | ARM |
| 12 | Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari | 28.03. 2023 | ARM Majlislar zali |
| 13 | Kitobxonlik haftaligi: ochilish marosimi | 03.04.2023 | ARM Majlislar zali |
| 14 | Mirzacho`l agrosanoat texnikumi: Eng faol kitobxon | 05.04. 2023 | Mirzacho`l agrosanoat texnikumi |
| 15 | Amir Temur –buyuk davlat arbobi | 04.04.2023 | ARM Majlislar zali |
| 16 | Kitobxoncha QUIZ | 04.04.2023 | ARM Majlislar zali |
| 17 | Haftalik doirasida: Kitob- tafakkur qanoti | 06.04.2023 | Fizika va texnologik ta`lim fakulteti |
| 18 | Men o`qigan asar | 07.04.2023 | G`allaorol texnikumi |
| 19 | Kitob o`qigan insonning qanoti bor | 06.04.2023 | Sirtqi bolim Majlislar zali |

| | | | |
|----|---|------------|-----------------------------|
| 20 | Badiiy adabiyotning tafakkur rivojlanishidagi o`rni | 06.04.2023 | Sirtqi bolim Majlislar zali |
| 21 | X.X.Andersen hayoti va ijodi | 07.04.2023 | ARM |
| 22 | Ijodiy uchrashuv "Ilmga baxshida umr" | 14.04.2023 | ARM Majlislar zali |
| 23 | Vatan-sajdagoh kabi muqaddas | 14.04.2023 | 32-maktab |
| 24 | Muhammad Yusuf ijodi:Shoir yashar qalblarda | 14.04.2023 | 20-maktab |
| 25 | Yangi adabiyotlar targ`iboti | 01.05.2023 | ARM |
| 26 | Yangi hayot uchun, yangi O`zbekiston uchun | 30.08.2023 | ARM |
| 27 | "1-kurs maktabi" doirasida "Suhbat-sayohat tadbirlari | 04.09.2023 | ARM |
| 28 | "Sharaf yo`li" hamda "Sharafnoma" kitoblarining taqdimoti | 09.11.2023 | ARM Majlislar zali |
| 29 | Biz birgalikda korrupsiyani to`xtatamiz | 10.10.2023 | ARM |
| 30 | Yurtga sadoqat bilan xizmat qilgan inson | 03.11.2023 | ARM |
| 31 | Ma`naviyat gulshaniga sayohat | 10.11.2023 | ARM |
| 32 | Bayroqqa sadoqat –yurtga sadoqat | 18.11.2023 | TTJ |
| 33 | "Eng faol kitobxon" tanlovi | 05.12.2023 | |

Yil davomida tashkil etilgan ko`rgazmalar

| | |
|----|---|
| 1 | Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili |
| 2 | "Kitob –millatning bebaho ma`naviy va madaniy merosi" |
| 3 | "Ajdodlar ruhi barhayot" |
| 4 | "G`azal mulkining sultoni" |
| 5 | "Bobur –shoh va shoir" |
| 6 | "Baxtim shul o`zbekning Zulfiyasiman" |
| 7 | "Amir Temur –ilm-fan va madaniyat homiysi" |
| 8 | "Abdulla Qodiriy-o`zbek romanchiligining asoschisi" |
| 9 | "Yangi adabiyotlar sizlar uchun" |
| 10 | Korrupsiyani birgalikda to`xtatamiz |
| 11 | Amir Temur-buyuk davlat arbobi |

Tashkil etilgan mavzuli kartotekalar

- 2023 yil- Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili
- Prezident qarorlari va farmonlari
- Prezident asarlari
- O`lkashunoslik kartotekasi
- Kutubxona faoliyatiga doir yangiliklar
- Milliy qadriyatlar
- Ayol-jamiyat tayanchi
- Buyuk siymolar
- Milliy g`oya
- Muhim sanalar
- Giyohvandlik – asr vabosi

| № | Yil boshida umumiy fond | Fonddan chiqarilgan | Yangi olingan | Yil oxirida umumiy fond |
|---|-------------------------|---------------------|---------------|-------------------------|
| | 181718 | 1803 | 6636 | 186551 |

| № | Yillik qatnovlar | Berilgan adabiyot | Jami kitobxon soni |
|---|------------------|-------------------|--------------------|
| | 351418 | 1080831 | 20195 |

ARM direktori:

R.Ishnazarova